


Respublika OAK jurnali

ISSN 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY-METODIK JURNALI



AVGUST 2026, 5-SON

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
<https://etjournal.buxdpi.uz>



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 5

BUXORO – 2026

JOMIY VA NAVOIY IDIOSTILIDA “LA’L” KONSEPTI VA UNING METAFORIK XUSUSIYATLARI

Tavakkal Choriyev,

filologiya fanlari nomzodi, Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori

Annotatsiya: Maqolada Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy idioshtilida «la’l» konseptining lingvopoetik xususiyatlari hamda uning metaforik semantikasi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda «la’l» leksemasining asl ma’nosi – qimmatbaho tosh nomidan tashqari, har ikki shoir ijodida lab, og‘iz, so‘z, ishq, jon, may, qon, nur, ma’naviy kamolot va ilohiy jamol kabi ko‘p qatlamli konseptual ma’nolarni ifodalovchi poetik ramz sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatib berilgan. Jomiy va Navoiy she’riyatida «la’l» asosida yaratilgan konseptual va badiiy metaforalar, ularning kognitiv, lingvomadaniy hamda estetik vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, «la’l» konsepti orqali oshiq–ma’shuq munosabatlari, tasavvufiy-irfoniy g‘oyalalar va muallif idioshtilining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Tahlil natijalari «la’l» konsepti har ikki shoirning poetik tafakkurida umumiy sharqona an’analarini aks ettirishi bilan birga, har bir ijodkorning individual badiiy uslubini shakllantiruvchi muhim lingvopoetik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, idioshtil, konsept, «la’l» konsepti, metafora, konseptual metafora, lingvopoetika, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, poetik semantika, ramz, badiiy obraz, fors-tojikcha mushtarak leksik birliklar.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ концепта «лаъл» («рубин») и его метафорических особенностей в идиостиле Абдурахмана Джами и Алишера Навои. Показано, что лексема «лаъл» в творчестве обоих поэтов функционирует не только как наименование драгоценного камня, но и как многослойный поэтический символ, обозначающий губы, уста, слово, любовь, душу, вино, кровь, свет, духовное совершенство и божественную красоту. Особое внимание уделяется концептуальным и художественным метафорам, сформированным на основе концепта «лаъл», а также их когнитивным, лингвокультурным и эстетическим функциям. Кроме того, раскрывается роль данного концепта в художественном воплощении отношений между влюблённым и возлюбленной, суфийско-мистических идей и формировании индивидуального идиостиля каждого автора. Результаты исследования свидетельствуют о том, что концепт «лаъл», отражая общие традиции восточной классической поэзии, одновременно выступает важнейшим лингвопоэтическим средством формирования индивидуального художественного стиля Джами и Навои.

Ключевые слова: Абдурахман Джами, Алишер Навои, идиостиль, концепт, концепт «лаъл», метафора, концептуальная метафора, лингвопоэтика, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, поэтическая семантика, символ, художественный образ, общие персидско-таджикские лексические единицы.

Annotation: This article presents a comparative study of the concept of “La’l” (ruby) and its metaphorical characteristics in the idiostyles of Abdurahman Jami and Alisher Navoi. The study demonstrates that the lexical unit “la’l” functions in the poetry of both authors not only as the name of a precious gemstone but also as a multilayered poetic symbol representing lips, speech, love, soul, wine, blood, light, spiritual perfection, and divine beauty. Special attention is paid to the conceptual and artistic metaphors based on the concept of “la’l”, as well as to their cognitive, linguocultural, and aesthetic functions. Furthermore, the article explores the role of this concept in expressing the relationship between the lover and the beloved, conveying Sufi-mystical ideas, and shaping the individual idiostyle of each poet. The findings reveal that while the concept of “la’l” reflects the shared traditions of classical Eastern poetry, it also serves as a significant linguopoetic device for constructing the unique artistic style of both Jami and Navoi.

Keywords: Abdurahman Jami, Alisher Navoi, idiostyle, concept, the concept of la‘l (ruby), metaphor, conceptual metaphor, linguopoetics, cognitive linguistics, linguocultural studies, poetic semantics, symbol, artistic image, shared Persian-Tajik lexical units.

KIRISH. Adabiyotshunoslikda «la‘l» ko‘proq she‘riyatning an‘anaviy obrazi, husn va go‘zallik ramzi, ma‘shuqaning labi, may rangi, qon, abadiy hayot hamda shirin kalom timsoli sifatida talqin etib kelingan. Jomiy va Navoiy g‘azaliyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Ye. E. Bertels, A‘loxon Afsahzod, Abduqodir Hayitmetov, Najmiddin Komilov, B. Valixo‘jayev, N. M. Mallayev va boshqa olimlar mumtoz she‘riyatdagi an‘anaviy poetik ramzlar qatorida «la‘l» obrazining badiiy vazifalariga ham e‘tibor qaratganlar. Biroq «la‘l» leksemasi bugungi kungacha lingvopoetik va idiostil hosil qiluvchi konsept sifatida kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida «la‘l»ning qo‘llanishini kontekstual semantika, polisemiya, metafora, konseptualizatsiya, kognitiv xususiyatlar hamda lingvomadaniy vazifalar nuqtayi nazaridan qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Shu bois ushbu leksemaning kompleks tahlili fors-tojik va turkiy-o‘zbek mumtoz adabiyoti lingvopoetikasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, har ikki buyuk ijodkor idiostilining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. «La‘l» leksemasi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlarida eng seriste‘mol, ko‘p ma‘noli hamda obraz yaratish imkoniyati nihoyatda keng bo‘lgan leksik birliklardan biridir. Bu so‘z har ikki shoir she‘riyatida nafaqat qizil rangli qimmatbaho toshning asl nomi sifatida, balki poetik ramz, barqaror metafora, tashbeh unsuri va husn, lab, so‘z, hayot, ishq, may, qon, jon hamda ma‘naviy kamolotni ifodalovchi badiiy vosita sifatida ham qo‘llanadi. Shu sababli «la‘l» Jomiy va Navoiy she‘riyati leksik-semantik tizimida oddiy javohir nomi doirasidan chiqib, ularning badiiy dunyoqarashini ifodalovchi muhim konseptlardan biriga aylangan.

Har ikki ijodkor asarlarida «la‘l» leksemasi mustaqil holda ham, turli izofiy va tavsifiy birikmalar tarkibida ham uchraydi. Jumladan, la‘li jonbaxsh, la‘li jonfazo, la‘li gavharbor, la‘li dilkushoy, la‘li xandon, la‘li durfishon, la‘li nob, la‘li obdor, la‘li suxango‘y, la‘li suxanpardoz, la‘li nushxand, la‘li shakar, la‘li shakarxand, la‘li tarabafzoy, la‘li turkigo‘y, la‘li gudoxta, la‘li mayparast, la‘li jom, la‘li nushin, la‘li sayyol, la‘li serob, la‘li xomush, la‘li sultoniy, la‘li yor, la‘li xushguvoru shakkaroyin, la‘li shakarrez, la‘li begudoz, otashin la‘le, la‘l etmak, la‘li ahmarin, la‘li Badaxshon, la‘li muzob, la‘li otashin, la‘li paykoni, la‘li ravon, la‘li rummoniy, la‘li jonparvar, la‘li mahlul, la‘li raxshon, la‘li ruhafzo, la‘li ruhparvar, la‘li shakarxoy, la‘li shahvor, la‘li shirinkor, la‘li yakdona, la‘li komgor, la‘li dilorom, la‘li namakin, la‘li toji shohiy, la‘li mayolud kabi birikmalar ushbu leksemaning semantik va so‘z yasash imkoniyatlari nihoyatda keng ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur birikmalar tuzilishi, ma‘nosi va badiiy vazifasiga ko‘ra bir xil emas. Ayrim hollarda «la‘l» bevosita ma‘shuqaning labi ma‘nosida qo‘llansa, boshqa o‘rinlarda u so‘z, may, qon, jon, javhar, obi hayot, ishq va ma‘rifat kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘lanadi. «La‘l» leksemasiga qo‘shilgan sifat va aniqlovchilar asosiy obrazning turli semantik qirralarini namoyon etadi. Masalan, jonbaxsh, jonfazo, ruhafzo, ruhparvar komponentlari ma‘shuqa labi yoki uning so‘zining hayot baxsh etuvchi xususiyatini ifodalasa, shakar, shakarxand, shakarxoy, shirinkor, namakin birliklari shirinlik, latofat, joziba va tabassum go‘zalligini bildiradi. Otashin, ahmarin, rummoniy, Badaxshon kabi sifatlar esa obrazning qizil rangini, yorqinligini va qimmatbaho javohir sifatidagi estetik qiymatini ta’kidlaydi.

Lug‘at ma‘lumotlariga ko‘ra, «Farhangi osori Jomiy» [1, 343]da 17 ta, «Navoiy asarlari lug‘ati» [2, 334–335]da esa 24 ta «la‘l» leksemasiga oid birikma qayd etilgan. Ushbu raqamlar mazkur so‘zning barcha qo‘llanish holatlarini to‘liq qamrab olmasa-da, uning har ikki shoir poetik obrazlar tizimida sermahsul va faol birlik ekanini tasdiqlaydi. Lug‘at materiallarini devonlar matni bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, «la‘l» leksemasining haqiqiy qo‘llanish doirasi, kontekstual ma‘no nozikliklari va ko‘chma ma‘nolari lug‘atlarda qayd etilganidan ancha kengdir. Buning sababi

shundaki, lug'atlar, odatda, nisbatan barqaror ma'nolar va birikmalarni qayd etadi, badiiy matnda esa muallifga xos individual birikmalar, okkazional ma'nolar va kontekstual semantik nozikliklar muntazam ravishda yuzaga keladi.

«Tojik tilining izohli lug'ati» [3, 750]da «la'l» so'zi, avvalo, yoqut jinsiga mansub qimmatbaho qizil tosh sifatida izohlanadi. Asl ma'nosi bilan bir qatorda uning ko'chma ma'nolari ham keltirilgan bo'lib, ular qatoriga qizil lab, ma'shuqaning la'l rang lablari, la'li lab, la'li suxango'y, la'li ruhafzo, la'li xandon, la'li jonbaxsh va la'li shakarbor kabi poetik birikmalar kiradi. Shuningdek, «la'l ba dast ovardan» frazeologik birikmasi muvaffaqiyatga erishmoq, maqsadga yetmoq, ko'zlangan natijani qo'lga kiritmoq ma'nolarida izohlanadi. Lug'atga «Ham la'l ba dast oyadu ham yor naranjad» maqolining kiritilishi «la'l» leksemasi xalqning lisoniy va madaniy tafakkurida boylik, muvaffaqiyat, bebaho ne'mat va orzu qilingan natijaning ramziga aylanganidan dalolat beradi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati» [4, 491]da «la'l» leksemasi etimologik jihatdan arabcha so'z sifatida qayd etilib, «qimmatbaho qizil tosh» hamda «yoqut» ma'nolarida sharhlanadi. Biroq mazkur lug'atda «la'l» so'zining o'zi va «la'li lab» kabi keng tarqalgan birikmadan tashqari, Navoiy asarlarida uchraydigan ko'plab individual-mualliflik birikmalari o'z aksini topmagan. Bu holat mazkur leksemaning ma'nosi va lingvopoetik vazifalarini faqat izohli lug'atlar asosida emas, balki bevosita badiiy matn asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Chunki poetik birlikning haqiqiy semantikasi faqat matn muhiti, obrazlar tizimi, muallifning badiiy maqsadi va adabiy an'ana bilan uzviy bog'liq holdagina to'liq namoyon bo'ladi.

Semantik nuqtayi nazardan «la'l»ning asl ma'nosi qizillik, yorqinlik, shaffoflik, qattqlik, noyoblik, qimmatbahollik va go'zallik kabi belgilardan tarkib topadi. Aynan shu semantik komponentlar ushbu leksemaning boshqa ma'no sohalariga metaforik ko'chishiga asos bo'lgan. Ma'shuqaning labi qizilligi, jilosi, nafisligi va qimmatbaholigi jihatidan la'lga qiyoslanadi. Natijada tashbeh elementi asta-sekin qisqarib, «la'l» bevosita «lab» o'rnida qo'llanadigan poetik nomga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan «la'li yor», «la'li xandon», «la'li shakarxoy» va «la'li suxango'y» kabi birikmalar yashirin istiora yoki nominativ metaforaning yorqin namunalaridir.

Bunday metaforalar tarkibida bir nechta sezgi belgisi o'zaro uyg'unlashadi. La'lning qizil rangi ko'rish sezgisi bilan, labning shirinligi ta'm sezgisi bilan, so'zlash qobiliyati eshitish sezgisi bilan, jon baxsh etish xususiyati esa ruhiy-emotsional ta'sir bilan bog'liqdir. Shu sababli «la'l» obrazi ko'p hollarda sinestezik metafora xususiyatini kasb etadi, ya'ni rang, ta'm, tovush va ruhiy holat kabi turli sezgilar bitta poetik obrazda uyg'unlashadi. Masalan, «la'li shakarbor» birikmasida la'lning qizilligi va jilosi shakarning shirinligi hamda labning so'z yaratish qudrati bilan qo'shib ketadi. Bunday sezgilar sintezi obrazning estetik ta'sirchanligini yanada kuchaytirib, uni she'riyatning muhim badiiy vositalaridan biriga aylantiradi.

Jomiy va Navoiyning badiiy dunyoqarashida «la'l» ko'pincha husn – ishq – jon – so'z – hayot konseptual maydoni doirasida amal qiladi. Ma'shuqaning labi la'l sifatida nafaqat tashqi go'zallik unsuri, balki so'z, tabassum, bo'sa, va'da, visol va oshiqning ma'naviy qayta tirilishining manbai sifatida tasvirlanadi. Shu bois «la'l» ko'pincha jonbaxsh, ruhafzo, ruhparvar va dilkushoy kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Mazkur sifatlar tashqi tasvir chegarasidan chiqib, obrazga hayot baxsh etuvchi hamda oshiqning ruhiy holatini o'zgartirish qudratini ifodalovchi chuqur poetik mazmun yuklaydi.

«La'l» metaforasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, uning asosida moddiy va ma'naviy olam o'rtasidagi semantik bog'liqlik vujudga keladi. Moddiy jihatdan la'l qimmat, noyob va porloq javohir hisoblanadi, she'riyatda esa ayni xususiyatlar ma'shuqaning husni, kalomi va ma'rifatiga ko'chiriladi. Natijada ma'shuqaning o'zi, uning labi va so'zi bebaho xazina hamda noyob gavhar sifatida talqin qilinadi. Tasavvufiy-irfoniy tafakkurda esa «la'l» ba'zan haqiqat kalomi, ilohiy fayz, ma'rifat sharobi va mutlaq jamol tajallisi ramziga aylanadi.

«La'li suxango'y», «la'li suxanpardoz» va «la'li turkigo'y» kabi birikmalar labning shaxslantirilishiga asoslangan. Bunday hollarda lab faol, so'zlovchi va ma'no yaratuvchi mavjudot

sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, «la'li turkigo'y» birikmasi Navoiy idiostilida alohida ahamiyat kasb etadi. Unda bir tomondan labning go'zalligi va qizil rangi, ikkinchi tomondan esa ma'shuqaning turkiy tilda so'zlashi mujassamlashgan. Mazkur obraz turkona husnni, turkiy so'zning shiradorligini hamda turkiy tilning shoir estetik tizimidagi yuksak maqomini ifodalashi mumkin. Aynan shu jihat Navoiy idiostilining milliy va individual xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

«La'li xomush» va «la'li suxango'y» birikmalari o'zaro antitezaga asoslangan. Birinchi holatda labning sukuti oshiq uchun kutish, hijron va mahrumlik manbai bo'lsa, ikkinchi holatda labning so'zi umid, lazzat va hayot manbaiga aylanadi. Shu tariqa «la'l» leksemasi sukut va nutq, hijron va visol, o'lim va hayot kabi semantik qarama-qarshiliklarni shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Ayrim birikmalarda, jumladan «la'li gudoxta», «la'li muzob», «la'li sayyol» va «la'li ravon» kabi ifodalarda qimmatbaho toshning qattiqlik belgisi yo'qolib, u suyuq javhar sifatida tasvirlanadi. Fizik holatning bunday noodatiy o'zgarishi yuqori darajadagi metaforiklikni yuzaga keltiradi. La'li gudoxta qizil mayni, dil qonini, qonli yoshni yoki labning oqib turgan qizil rangini anglatishi mumkin. Bunday hollarda la'l, may va qon tushunchalarining semantik maydonlari o'zaro uyg'unlashib, ko'p qatlamli poetik obrazni hosil qiladi. Ushbu tushunchalarni birlashtiruvchi asosiy semantik belgi qizillik bo'lib, aynan shu xususiyat metaforik ko'chishni ta'minlaydi.

«La'li Badaxshon» birikmasi Badaxshonning qadimdan mashhur la'l konlari bilan tanilganiga ishora qiladi. Biroq she'riy matnda ushbu nom shunchaki geografik ma'lumot emas, balki rangning mukammalligi, pokligi va javohirning eng yuksak qimmatini ifodalovchi poetik mezon vazifasini bajaradi. Odatda ma'shuqaning labi Badaxshon la'li bilan qiyoslanganda undan ham go'zalroq, yorqinroq va qimmatroq qilib tasvirlanadi. Shu sababli bunday obraz mubolag'a va ideallashtirishga asoslanib, ma'shuqaning maqomini tabiatdagi eng noyob javohirlardan ham yuksak darajaga ko'taradi.

Jomiy idiostilida «la'l» konsepti ko'proq irfoniy nozikliklar, jon baxsh etish, ruhni tarbiyalash hamda ma'shuqaning shirin kalomi bilan bog'lanadi. Uning she'riyatida la'l rang lab bir tomondan dunyoviy go'zallik timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan azaliy jamolning tajallisi sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan ma'shuqa ikki qiyofada namoyon bo'ladi: u ham yer yuzidagi mahbuba, ham Haqiqiy Ma'shuqning ramzidir. Binobarin, Jomiy asarlarida «la'l» estetik vazifa bilan bir qatorda ma'rifiy va irfoniy vazifani ham bajaradi.

Navoiy idiostilida esa «la'l»ning qo'llanish doirasi yanada keng va so'z yasash imkoniyatlari jihatidan rang-barangroqdir. Shoir ushbu leksemani fors-tojik va turkiy birliklar bilan uyg'unlashtirib, yangi hamda individual-mualliflik birikmalarini yaratadi. Uning she'riyatida «la'l» nafaqat labni, balki may, qon, o'q (paykon), yosh, toj, so'z va muvaffaqiyat kabi tushunchalarni ham ifodalaydi. Bunday ko'p qirralilik Navoiyning fors-tojik mumtoz poetikasining an'anaviy unsurlarini turkiy til va badiiy tafakkur tizimiga ijodkorona moslashtirish mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Jomiy va Navoiy asarlarida «la'l»ning qo'llanishidagi o'xshashlik, avvalo, Sharq mumtoz adabiy an'anasining mushtarakligi, tashbeh va istiora qoliplarining umumiyliigi hamda ularning irfoniy dunyoqarashidagi yaqinlik bilan izohlanadi. Har ikki shoir «la'l»ni lab, husn, shirin so'z va hayot baxsh etuvchi kuchning ramzi sifatida talqin qiladi. Biroq farq shundaki, Jomiy obrazning irfoniy va ruhiy mazmunini chuqurlashtirishga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lsa, Navoiy uning so'z yasash imkoniyatlarini kengaytirish, yangi semantik qirralarini ochish va obrazni turkiy til muhitiga moslashtirishga ko'proq intiladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan «la'l» konsepti ko'p qatlamli mental tuzilma hisoblanadi. Uning markaziy qatlamini «qimmatbaho qizil tosh» ma'nosi tashkil etadi. Yaqin periferiyada «lab», «qizillik», «go'zallik», «shirinlik» va «qimmatbaholik» tushunchalari joylashadi. Uzoqroq periferiyada esa «so'z», «jon», «may», «qon», «ishq», «muvaffaqiyat», «ma'rifat» va «ma'naviy hayot» konseptlari mujassamlashadi. Ushbu qatlamlarning o'zaro bog'lanishi keng assotsiativ tarmoqni yuzaga keltiradi va badiiy matn kontekstiga qarab uning

muayyan elementi faollashadi.

Konseptual metafora nazariyasi nuqtayi nazaridan «la'l» konsepti quyidagi asosiy metaforik modellar orqali namoyon bo'ladi: Lab – la'ldir; So'z – gavhar yoki shakardir; Husn – javohirdir; Ishq – olovdir; May – erigan la'ldir; Dil qoni – oqayotgan la'ldir; Ma'shuqaning kalomi – obi hayotdir.

Mazkur modellar shuni ko'rsatadiki, abstrakt va ma'naviy tushunchalar inson idroki uchun aniq seziladigan predmet va hodisalar vositasida konseptuallashtiriladi. La'l moddiy obyekt sifatida husn, ishq, so'z va ma'naviy kamolot kabi murakkab tushunchalarni anglash uchun kognitiv asos yaratadi hamda ularni poetik tafakkurda obrazli shaklda ifodalash imkonini beradi.

Shunday qilib, «la'l» leksemasi Jomiy va Navoiy asarlarida qimmatbaho toshni nomlovchi oddiy leksik birlik emas, balki ko'p qatlamli badiiy, kognitiv va lingvomadaniy konsept sifatida namoyon bo'ladi. Uning semantik tuzilishida asl ma'no, ko'chma ma'nolar, tasavvufiy ramzlar, madaniy assotsiatsiyalar hamda har ikki shoir idiositilining individual xususiyatlari o'zaro uyg'unlashgan. Aynan shunday lingvopoetik qo'llanish natijasida «la'l» husn, lab, so'z, jon va ishqning obrazlar maydonidagi asosiy konseptlardan biriga aylangan.

Jomiy va Navoiy she'riyati namunalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, «la'l» bilan bog'liq har bir birikma matn kontekstiga qarab o'ziga xos semantik mazmun kasb etadi. Shu sababli keyingi tahlillarda nafaqat leksemaning lug'aviy ma'nosi, balki uning hamroh so'zlar bilan munosabati, badiiy tasvir vositalari, baytning kompozitsion tuzilishi, tasavvufiy asoslari va muallifning uslubiy maqsadi ham hisobga olinishi zarur. Ana shunday yondashuv «la'l» konseptining Jomiy va Navoiy idiositilidagi umumiy hamda individual xususiyatlarini har tomonlama aniqlash imkonini beradi.

Har ikki adib metaforik tizimining markazida quyidagi konseptual modellar turadi.

1. «La'l» – ma'shuqa labining metaforasi. Jomiy va Navoiy g'azallarining aksariyatida «la'l» bevosita ma'shuqaning qizil va go'zal labi ma'nosida qo'llanadi. Mazkur semantik ko'chishning asosini rang va jilo o'xshashligi tashkil etadi. Ma'shuqaning labi qizilligi, tarovati, go'zalligi va qimmatbaholigi tufayli la'lga qiyoslanadi. Vaqt o'tishi bilan tashbeh unsuri qisqarib, «la'l» bevosita «lab»ning poetik ekvivalentiga aylangan.

Jomiy she'riyatida «la'li tu», «la'li yor», «la'li jonon», «la'li xandon», «la'li xomush», «la'li serob», «la'li obdor» va «la'li dilkushoy» kabi birikmalar, asosan, labning holati, harakati va oshiqqa ko'rsatadigan ta'sirini tasvirlashga xizmat qiladi. Bu obrazda la'l kuladi, so'zlaydi, sukut saqlaydi, qalbni ochadi va oshiqqa quvonch baxsh etadi.

Navoiy she'riyatida ham «la'li yor», «du la'li jonfizo», «la'li jonbaxsh», «la'li dilorom», «la'li namakin», «la'li mayolud» va «du la'li otashin» kabi birikmalar ma'shuqaning labini ifodalaydi. Biroq Navoiy idiositilida labning hissiy va paradoksal xususiyatlari yanada kuchliroq namoyon bo'ladi. Uning labi bir vaqtning o'zida ham jon baxsh etadi, ham jon oladi; ruhni taskinlantiradi, ammo jismni iztirobga soladi.

Demak, har ikki idiositilda «la'l» labning barqaror nominativ metaforasi hisoblanadi. Ammo Jomiy bu obrazning estetik va ma'naviy jihatlarini chuqurlashtirsa, Navoiy uning hissiy, dramatik va antinomik tabiatini yanada faolroq ochib beradi.

2. «La'l» – hayot va qayta tirilish Manbai. «La'l» semantikasining muhim rivojlanish yo'nalishlaridan biri uning hayot konsepti bilan uzviy bog'lanishidir. Jomiy she'riyatida «la'li hayotbaxsh», «la'li jonbaxsh», «la'li jonafzo» hamda «la'l – Kavsar» kabi birikmalar labni hayot va ma'naviy qayta tirilish manbai sifatida talqin qiladi.

Jomii xastaro, ki shud kushtayi tegi gamzaat,

La'li hayotbaxshi tu dod ba xanda joni nav [6, 181].

Mazkur baytda la'l o'z tabassumi bilan g'amza tig'idan halok bo'lgan oshiqni yana hayotga qaytaradi. Boshqa baytlarda esa ma'shuqaning ko'zi oshiqni dardga mubtalo etsa, Masih sifatidagi la'l unga shifo baxsh etadi. Shu tariqa Jomiy idiositilida «ko'z – o'lim» va «la'l – hayot» oppozitsiyasi barqaror poetik modelga aylanadi.

Navoiy she'riyatida ham «la'li jonfizo», «la'li jonbaxsh» va «la'li jonparvar» kabi

birikmalar ayni mazmunni ifodalaydi:

Dahan shud chashmai hayvon, turo az ayni noyobiy,
Du la'li jonfizoyi dilkashat on chashmaro labho [6, 16].

Bu baytda ma'shuqaning og'zi obi hayot bulog'i, lablari esa ikki jon baxsh etuvchi la'l sifatida tasvirlangan. Biroq Navoiy ushbu an'anaviy metaforani ko'pincha paradoks asosida rivojlantiradi:

La'li jonbaxshash zi mardum jon ba osoni girift,
Saxtjonihoyi man in qissaro dushvor kard [6, 284].

Natijada «jonbaxsh» komponentining lug'aviy ma'nosi baytning umumiy mazmuni bilan ziddiyat hosil qiladi: aslida jon baxsh etishi kerak bo'lgan la'l aksincha, jonni tortib oladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Jomiy ijodida lab – hayot manbai metaforasi ko'proq uyg'unlik, ruhiy taskin va najot g'oyalarini ifodalasa, Navoiy idiosstilida ayni metafora ichki ziddiyatga ega bo'lib, ishqning ikki tomonlama mohiyatini – hayot baxsh etuvchi va halokatga olib boruvchi kuch sifatidagi tabiatini ochib beradi. Bu holat Navoiy poetikasining dramatik-estetik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

3. «La'l» va Masih talmehi. Har ikki shoir she'riyatida «la'l»ning jon baxsh etuvchi qudrati Hazrati Iso (Masih) mo'jizasi bilan bog'lanadi. Ushbu talmeh Masihning nafasi bilan o'liklarni tiriltirish haqidagi diniy e'tiqodga asoslanadi.

Jomiy shunday deydi:

La'li tu omad Masih, k-az dami jonbaxshi xesh
Dod shifo har kiro, chashmi tu bemor kard [6, 66].

Mazkur baytda la'l bevosita Masih deb ataladi. Ma'shuqaning labi o'z nafasi va kalomi bilan uning nigohi tufayli dardga muhtalo bo'lgan oshiqni davolaydi.

Boshqa bir baytda Jomiy jon baxsh etuvchi la'lni Masih bilan qiyoslaydi:

Guftamash: – Bo la'li jonbaxsh az Masiho kam naiy,
Guft: – Dam darkash, ki tu shoyistayi in dam naiy [6, 225].

Navoiy ijodida ham mu'g'bachaning jonparvar la'li birgina nozik so'zi bilan Masihni qadimiy dunyodan chiqarib yuboradi:

Manu ko'yi mu'gon v-on mu'g'bacha k-az la'li jonparvar
Ba nukta karda z-in dayri kuhan berun Masihoro [6, 29].

Bu yerda ma'shuqaning labi faqat Masihga tenglashtirilmaydi, balki undan ham ustun qo'yiladi. Masih o'z nafasi bilan o'liklarni tiriltirgan bo'lsa, mu'g'bachaning la'li birgina nozik kalomi bilan Masihning o'zini ham maftun etadi.

Demak, Jomiy idiosstilida Masih talmehi asosan labning shifo beruvchi va jon baxsh etuvchi xususiyatini ochishga xizmat qiladi. Navoiy idiosstilida esa mazkur talmeh raqobat, mubolag'a va badiiy ustunlashtirish xarakterini kasb etadi: ma'shuqaning la'li Masih mo'jizasidan ham yuksak darajaga ko'tariladi.

4. «La'l» – so'z manbai sifatida. Har ikki shoir idiosstilida lab nafaqat go'zallik timsoli, balki so'z, hikmat va ma'no manbai hamdir. Ushbu konsept quyidagi metaforik model orqali ifodalanadi: So'z – gavhardir; Lab – gavhar xazinasidir.

Jomiy she'riyatida bu g'oya «la'li durfishon», «la'li gavharbor», «la'li suxanpardoz», «la'li turkigo'y», «la'li purfasona» va «la'li shakarxoy» kabi birikmalar orqali ifodalanadi. Lab so'zlagan paytda go'yo dur va gavhar sochadi:

Chu gardad durfishon la'li tu, Jomiy,
Zi la'lu dur kunad pur domani chashm [6, 139].

Mazkur baytda ma'shuqaning labi dur sochayotgan bo'lsa, oshiqning ko'zi shaffof va qonli yoshlar bilan to'ladi. Shu tariqa ma'shuqaning kalomi va oshiqning ko'z yoshi yagona javohir konseptual maydoni doirasida birlashadi.

Navoiy ijodida esa «la'li shakarbor» va «la'li suxango'y» kabi birikmalar labning kalam yaratuvchi vazifasini ifodalaydi:

Fayzi qudsiy rasad az nuqtayi Foni har dam,
Ki hadisash sifati la'li suxango'yi tu bud [7, 269].

Bu baytda ma'shuqaning la'li shoir ilhomining manbaiga aylanadi. Foni kalominiy «fayzi qudsiy»ga ega bo'lishi uning mavzusi ma'shuqaning so'zlovchi labini madh etishi bilan izohlanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Jomiy ko'proq ma'shuqaning kalomini dur, gavhar, shakar va afsona sifatida poetiklashtiradi. Navoiy esa la'l obrazini bevosita o'zining ijodiy faoliyati va she'riy ilhomi bilan bog'laydi. Shu sababli uning idiositilida «la'li suxango'y» nafaqat go'zallik ramzi, balki ijodiy o'zlikni anglash, poetik ilhom va badiiy tafakkur manbai sifatida ham namoyon bo'ladi.

5. «La'l» – tabassum va kulgi timsoli. Jomiy she'riyatida «la'l» obrazi ko'pincha kulgi va tabassum bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. «La'li xandon», «la'li nushxand», «la'li shakarxand» va «la'li shakarxoy» kabi birikmalar kulgi Jomiy idiositilidagi «la'l» obrazining muhim semantik belgilaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Har kas, ki binad on la'li xandon,
Angushti hayrat girad ba dandon [6, 160].

Mazkur baytda ma'shuqaning kulib turgan labi uni ko'rgan kishining hayrat va maftunligiga sabab bo'ladi.

Yana bir baytda la'li nushxandning tabassumi oshiqning achchiq yig'isiga davo sifatida talqin etiladi:

Iloji giryai talxam, chu jomi aysh kashiy,
Ba juz tabassumat az la'li nushxand mabod! [6, 406].

Bu kabi birikmalarda rang, harakat, ta'm va ruhiy holat bir poetik obrazda uyg'unlashadi. Kulgi «nush» va «shakar» sifatida tasvirlanadi, ya'ni vizual holat ta'm sezgisi orqali ifodalanadi. Natijada sinestezik metafora yuzaga kelib, obrazning estetik ta'sirchanligi kuchayadi.

Navoiy she'riyatida esa kulgi «la'l» obrazining mustaqil komponenti sifatida nisbatan kamroq uchraydi. Shoir ko'proq labning so'zlovchi, jon baxsh etuvchi, otashin va mayolud xususiyatlarini tasvirlashga e'tibor qaratadi. Shu bois «la'li xandon» va «la'li shakarxand» obrazlari, asosan, Jomiy poetik tizimining o'ziga xos belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

6. «La'l» – may va mastlik timsoli. Jomiy va Navoiy she'riyatida lab bilan may o'rtasida barqaror metaforik munosabat mavjud. Bu bog'liqlik ularning qizilligi, lazzat baxsh etishi va mast qiluvchi ta'siri asosida yuzaga keladi. Ushbu konseptual model quyidagicha ifodalanadi:

Lab – maydir; Ishq – mastlikdir.

Jomiy shunday deydi:

Bo xayoli labi mayguni tuam vaqt xush ast,
Bar kafam sog'ari la'li tarabafzoy maneh [6, 335].

Mazkur baytda ma'shuqaning may rang labi haqidagi xayol may to'la jomdan ham afzal qo'yiladi. Boshqa baytlarda «la'li jom» va «bodayi la'lfom» obrazlari lab, jom va mayni yagona konseptual tarmoqqa birlashtiradi.

Navoiy ham ayni metaforik modeldan foydalanadi:

Digar ba la'li mayolud soqiyi sarmast,
Ba jonam otashu dar jismam iztirob afkand [7, 288].

Bu yerda ma'shuqaning mayga belangan labi yanada qizil, yanada jozibador ko'rinadi. La'li mayolud bir vaqtning o'zida ham mast qiladi, ham qalbni kuydiradi.

Boshqa baytlarda «la'li dilorom»ning xayoli gulrang may singari shodlik baxsh etsa, «la'li namakin» may bilan qiyoslanadi. Shoir «namak» so'zining ko'p ma'noliligidan foydalanib, o'ziga xos semantik paradoks yaratadi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, Jomiy she'riyatida may rang lab ko'proq mayning o'rini bosuvchi va quvonch manbai sifatida talqin qilinadi. Navoiy poetikasida esa lab va mayning bog'liqligi olov, iztirob, mastlik hamda oshiqning ruhiy va jismoniy kechinmalari bilan

chambarchas bog‘lanadi. Shu jihatdan Navoiyda mazkur metafora yanada dramatik mazmun kasb etadi.

7. «La’l» – olov metaforasi. «La’li otashin» obrazi har ikki shoir ijodida uchraydi. Ushbu birikmada la’lning qizil rangi olovning issiqligi va kuydiruvchi kuchi bilan uyg‘unlashadi.

Jomiy «otashin la’li obdori lab»ni husn uzugining eng qimmatbaho ko‘zi deb biladi. Mazkur obrazda olov va suv qarama-qarshi elementlari birlashadi: «otashin» qizillik va issiqlikni, «obdor» esa tarovat va jiloni ifodalaydi. Bunday tasvirning asosiy maqsadi ma’shuqa labining mukammal tashqi go‘zalligini ko‘rsatishdir.

Navoiy esa quyidagicha yozadi:

Zi la’li otashinash suxtam, shoyad, ki borad xun,
Chu gardad abr az on bode, ki dar xokistaram aftad [7, 315].

Bu baytda la’li otashin shunchaki qizil emas, balki haqiqatan ham kuydiruvchi kuch sifatida tasvirlangan. Oshiq uning ta’sirida yonadi, kulga aylanadi, keyin esa uning kulidan hosil bo‘lgan bulut qon yog‘diradi.

Demak, Jomiy poetikasida «otashin» asosan rang va estetik go‘zallik belgisini ifodalasa, Navoiy idiostilida u harakat, yonish, halokat va ishq fojeasining ramziga aylanadi. Aynan shu xususiyat Navoiy poetikasining kuchli drammatizmi va hissiy intensivligini yaqqol namoyon etadi.

8. «La’l» – qon va qizil yosh metaforasi. Har ikki shoir she’riyatida «la’l» nafaqat labni, balki qonli yosh yoki dil qonini ham ifodalashi mumkin. Ushbu metaforaning asosini ularning umumiy semantik belgisi – qizillik tashkil etadi: Qon – la’ldir; Qonli yosh – la’ldir.

Jomiy shunday deydi:

Rezam ba jaybu domani qosid zi dida ashk,
Gavhar ba jaybu la’l ba domon firistamash [6, 291].

Bu baytda shaffof yosh gavhar, qonli yosh esa la’l sifatida talqin qilinadi. Boshqa bir baytda shoir o‘zining qizil yoshini ma’shuqaning la’li bilan bir rangda tasvirlaydi.

Navoiy ham quvonch yoshini «yoquti rummoniy» va «la’li nob» obrazlariga aylantiradi:

Yor shud mehmoni man, v-az giryai shodiy du chashm,
Dar rahash yoquti rummoniyu la’li nob rext [7, 130].

«Varaqi sina zi la’lu alife dogam hast» misrasida esa la’l oshiq ko‘ksidagi qizil dog‘ va jarohatdan oqayotgan qonni anglatadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Jomiy ko‘proq yoshni ko‘z gavhari hamda ma’shuqa labi ta’sirining natijasi sifatida tasvirlaydi. Navoiy esa qon, yosh va dog‘ni oshiq tanasining ajralmas qismiga, uning ishqiy taqdirining muhriga aylantiradi.

9. «La’l» – haqiqiy javohir va moddiy qadriyat timsoli. Ayrim baytlarda «la’l»ning asl lug‘aviy ma’nosi saqlanib qoladi, biroq qiyos yoki antiteza orqali u qo‘shimcha poetik mazmun kasb etadi. Jomiy «chatri la’li sultoniy» obrazi orqali qizil gulni la’ldan yasalgan shoh soyaboniga qiyoslaydi. Besutun haqidagi baytida esa lola go‘yo konidan uzilib chiqqan otashin la’l sifatida tasvirlanadi. Navoiy «la’li toji shohiy» birikmasida ham javohirning asl ma’nosidan foydalanadi:

Gadoem, iltimosi mo buvad yak jur’a may...
Naxohad bud la’li toji shohiy multamas moro [7, 26].

Biroq bu yerda shoh tojidagi la’l oddiy bir qultum ishq mayi oldida qadrsiz bo‘lib qoladi. Xuddi shuningdek, «jomi la’li komgoron» ham jigarxonlarning eski sopol kosasidan past qo‘yiladi. Demak, Jomiy la’lning estetik qimmatidan tabiat va husnni tasvirlashda foydalansa, Navoiy uning moddiy qiymatini shubha ostiga qo‘yib, uni faqr, ishq mayi va oshiqning ruhiy iztiroblari bilan qiyoslaydi. Bu holat shoirning tasavvufiy va rindona dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liqdir.

10. Adabiy talmehlar va «la’l» obrazining kengayishi. Har ikki shoir «la’l» metaforasini diniy va adabiy talmehlar bilan boyitadi. Jomiy she’riyatida la’l obrazi Masih, Kavsar, Shirin, Farhod, Parvez va Besutun bilan bog‘lanadi. Jumladan, «la’li jonafzoyi Shirin» obrazi Farhodning yetib bo‘lmas visoli va ishq maqsadining ramzi sifatida talqin etiladi.

Navoiy ijodida esa la’l obrazi Layli va Majnun, Masih, Chashmai hayvon, muğbacha va

dayri kuhan bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. «Varaqi sina» haqidagi baytda ko'ksidagi la'l rang dog'lar Majnunining Layliga yozgan maktubiga qiyoslanadi. Qiyosiy jihatdan qaraganda, Jomiy talmehni, asosan, labning go'zalligi va sifatlarini kuchaytirish uchun qo'llaydi. Masalan, lab Kavsar, Masih yoki Shirinning la'li bilan qiyoslanadi. Navoiyda esa talmeh yangi dramatik va tasavvufiy poetik tizimni yaratadi: ko'krak – Majnunining maktubi, og'iz – obi hayot bulog'i, mu'g'bachaning la'li esa Masihning raqibi sifatida tasvirlanadi.

11. «La'l» metaforasining sinestezik xususiyati. Har ikki adib she'riyatida «la'l» bir nechta sezgi qatlamlarini o'zida mujassamlashtiradi:

- qizillik va jilo – ko'rish sezgisi;
- shakar, nush va namak – ta'm sezgisi;
- so'zlash va afsona – eshitish sezgisi;
- otashinlik – issiqlik sezgisi;
- jon baxsh etish va diloromlik – ruhiy-emotsional holat.

Jomiy «la'li nushxand», «la'li shakarxand», «la'li shakarxoy» va «la'li gavharbor» kabi birikmalarda rang, ta'm, tovush va kulgini yagona poetik obrazga birlashtiradi. Uning sinesteziyasi nozik, musiqiy va estetik xarakterga ega.

Navoiy esa «la'li namakin», «la'li mayolud», «la'li otashin» va «la'li shakarbor» obrazlari orqali ta'm, issiqlik, mastlik hamda jismoniy ta'sirni uyg'unlashtiradi. Shu bois uning sinestezik metaforalari hissiy va psixofiziologik ta'siri jihatidan yanada kuchliroqdir.

12. «La'l» metaforasi va ko'z-lab munosabati. Jomiy she'riyatida ko'z va lab o'rtasidagi munosabat muhim poetik modellaridan biridir. Ko'z g'amza tig'i bilan oshiqni yaralasa, jon baxsh etuvchi la'l unga shifo va himoya beradi:

Chashmi sho'xash mekashad tegi jafo,
 La'li jonbaxshash himoyat mekunad [6, 71].

Mazkur poetik modelda ko'z – jafo, la'l – lutf va najot ramzi hisoblanadi. Ma'shuqa chehrasining a'zolari bir-biriga qarama-qarshi ikki estetik kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiy she'riyatida esa ko'z va labning bunday bevosita qarama-qarshiligi kamroq uchraydi. Uning la'li mustaqil poetik kuch sifatida harakat qiladi: u jon oladi, kuydiradi, mast qiladi yoki ruh baxsh etadi. Demak, Jomiy idiosstilida «la'l» obrazi ko'proq ma'shuqa chehrasining boshqa qismlari bilan o'zaro munosabatda shakllansa, Navoiy poetikasida u mustaqil estetik va semantik markaz, oshiq taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faol badiiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

MUSHTARAK METAFORIK MODELLAR		
Har ikki shoir she'riyatida quyidagi konseptual metafora modellari mushtarak hisoblanadi:		
Lab – la'ldir Lab – obi hayotdir Lab – Masihdir	Lab – maydir Lab – olovdur So'z – gavhardir	So'z – shakardir Ishq – mastlikdir Qonli yosh – la'ldir Husn – javohirdir

Mazkur konseptual modellar Sharq mumtoz adabiy an'anasining mushtarakligi, fors-tojik poetikasining kuchli ta'siri hamda Jomiy va Navoiy irfoniy dunyoqarashining yaqinligidan dalolat beradi. Biroq obrazning umumiy manbai bir xil bo'lishiga qaramay, «la'l» metaforasi har ikki shoir idiosstilida o'ziga xos individual semantik va lingvopoetik xususiyatlarni kasb etadi.

Idiosstilga xos farqlar	
Jomiy idiosstilida	Navoiy idiosstilida
La'l ko'proq kulgi, tabassum va shirin so'z bilan bog'lanadi.	La'l ko'proq olov, may, qon, dog' va iztirob bilan bog'lanadi.
Jafakor ko'z va jon baxsh etuvchi la'l o'rtasidagi poetik oppozitsiya faol qo'llanadi.	Obraz paradoksal tus oladi: jon baxsh etuvchi la'l ayni paytda jonni ham tortib

	oladi.
Kavsar, Masih, jannat va shifo bilan bog'liq ma'nolar ustuvorlik qiladi.	La'l ma'nosi oshiqning jismoniy kechinmalari va keskin ruhiy iztiroblari bilan bog'lanadi.
Birikmalar nafis, mutanosib va estetik xarakterga ega.	La'l ning moddiy qadriyati faqr, ishq va may oldida inkor etiladi.
La'l fasohat, gavhar sochish va shirin tabassum manbai sifatida talqin qilinadi.	La'li suxango'y shoirning ijodiy ilhomi va poetik o'zligini anglash manbaiga aylanadi.
Lafziy musiqiylik va sifatning uyg'unligi muhim o'rin tutadi.	Talmehlar dramatik va tasavvufiy poetik tuzilmalarga singdiriladi.

Shartli ravishda aytish mumkinki, Jomiy idiosstilida «la'l» metaforasi ko'proq jamol, shirin kalom va ruhiy poklanish timsoli sifatida namoyon bo'lsa, Navoiy idiosstilida u ko'proq otashin, paradoksal, dramatik va intensiv hissiy kechinmalarni ifodalovchi badiiy konsept sifatida gavdalanadi. Shu bois har ikki shoir bir xil an'anaviy poetik obrazdan foydalangan bo'lsalar-da, uni turlicha konseptualashtirib, o'ziga xos individual idiosstil yaratishga muvaffaq bo'lganlar.

«La'l» metaforasining qiyosiy namoyon bo'lishi		
Metaforik yo'nalish	Jomiy idiosstilida	Navoiy idiosstilida
La'l – lab	Kulib turgan, dilkushoy, serob, gavharbor lab	Jonfizo, otashin, namakin, mayolud lab
La'l – hayot	Hayotbaxsh, jonbaxsh, Masih, Kavsar	Jonfizo, jonparvar, chashmai hayvon
La'l – o'lim	Lab ko'proq shifo beradi, bemorni davolaydi	Jon baxsh etuvchi la'lning o'zi jonni oladi
La'l – so'z	Durfishon, gavharbor, suxanpardoz, purfasona	Shakarbor, suxango'y, Foniyy she'ri ilhomining manbai
La'l – kulgi	Xandon, nushxand, shakarxand	Nisbatan kam uchraydi
La'l – may	Maygun lab, la'li jom, sog'ari tarabafzoy	Mayolud, obdor, dilorom, namakin
La'l – olov	Qizillik va estetik mukammallik timsoli	Kuydirish, kulga aylantirish, iztirob manbai
La'l – yosh va qon	Qizil yosh, etakka to'kilgan la'l	Ko'krakdagi dog', la'li nob, qon yomg'iri
La'l – javohir	Husn gavhari, sultoniyy soyabon, kon la'li	Shoh toji la'li va komgorlar jomi, ammo ular inkor qilinadi
Talmehlar	Masih, Kavsar, Shirin, Farhod, Besutun	Masih, chashmai hayvon, Layli, Majnun, dayri mugon
Ustuvor poetik xususiyat	Nafislik, mutanosiblik, shirinlik va jamol	Shiddat, antiteza, otashinlik, fojeaviylik va irfon

Jadvaldan ko'rinadiki, «la'l» konsepti har ikki shoir poetikasida umumiy Sharq mumtoz an'analariga tayansa-da, uning lingvopoetik talqini turlicha rivojlangan. Jomiy idiosstilida «la'l» asosan go'zallik, hayotbaxshlik, shirin so'z, tabassum va estetik mutanosiblik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy idiosstilida esa mazkur konsept dramatism, paradoks, ruhiy iztirob, otashin ishq va tasavvufiy-irfoniy mazmun bilan boyitilib, yanada dinamik va ko'p qatlamli badiiy obrazga aylanadi. Shu jihatdan «la'l» konsepti har ikki shoirning individual idiosstilini shakllantiruvchi eng muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiyning «**Devoni Foniyy**» asaridagi idiosstilining eng yorqin xususiyatlaridan

biri – bitta leksema asosida yaxlit **metaforik maydon** yaratishdagi beqiyos badiiy mahoratidir. Ushbu san’atning yorqin namunasi sifatida «la’l» leksemasi **14 marta** turli semantik, ramziy va metaforik ma’nolarda qo’llangan g’azalni ko’rsatish mumkin. Mazkur maqsadli takror shunchaki uslubiy ta’kid vositasi emas, balki butun g’azalning kompozitsion va semantik yaxlitligini ta’minlovchi murakkab konseptual tarmoqni hosil qiladi.

Mayxona bin zi may chu Badaxshon makoni **la’l**,
Har xum dar o’ zi bodayi chun **la’l** koni **la’l**.
Bozori aysh bin, ki chu sarrof manfurush,
Dar vay kushoda az mayi rangin do’koni **la’l**.
Az hajri la’li go’shi tu, az ashk qatrae,
Ovexta zi har mija chashmam ba soni **la’l**.
Dar ko’hsori hajr, zi shavqi labi tu hast,
Koram ba xuni dil talabidan nishoni **la’l**.
Nabvad ba g’ayri xo’rdani xun, hechashon nasib,
Gul peshi bulbulon, ki kushodaast xoni **la’l**.
Aksi mayi labi tu ba mayxona uftod,
Shud har taraf zi bas mayi rangin jahoni **la’l**.
Dandon zadiyu rishtayi jonam gusexti,
Shud dar miyonayi du labat resmoni **la’l**.
Furqat zi zaxm san’gi balo **la’l** beh, agar
Farqat buvad miyonayi sangu miyoni **la’l**.
Foniy, xayoli **la’l** tu dorad ba dil, kiro
Budast dar miyoni gadoyon gumoni **la’l** [8, 108–109].

G’azal matlaida «la’l» leksemasi uch marta qo’llangan. Bu yerda «la’l» o’zaro bog’liq bo’lsa-da, mustaqil uch xil ma’noda namoyon bo’ladi. Avvalo, Badaxshon la’l konlari bilan mashhur maskan sifatida tilga olinib, real geologik makon mayxonaning ramziy fazosiga ko’chiriladi. Ikkinchidan, «bodayi chun la’l» tashbehi mayning qizil rangini la’lning jilosi bilan qiyoslaydi. Uchinchidan, «koni la’l» birikmasi mayxonani ma’naviy boylik va go’zallikning manbaiga aylantiradi. Shunday qilib, bitta baytda «la’l» bir vaqtning o’zida haqiqiy javohir, mayning qizil rangi hamda bebaho ma’naviy qadriyat ramzi sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi baytda «do’koni la’l» metaforasi moddiy va ma’naviy makonlarni o’zaro uyg’unlashtiradi. Mayxona bozordek tasvirlanadi, biroq unda oddiy javohir emas, balki may, ishq va ruhiy lazzat kabi ma’naviy boyliklar qadrlanadi. Natijada «la’l» ichki boylik va ma’naviy kamolot ramziga aylanadi.

Uchinchi baytda «la’li go’sh» ehtimol la’l bilan bezatilgan sirg’aga ishora qiladi. Unga qarama-qarshi tarzda oshiqning dil qonidan qizarib ketgan yoshi «ba soni la’l» tarzida tasvirlanadi. Bu o’rinda tashbeh asta-sekin metaforaga aylanadi: yosh endi shunchaki la’lga o’xshamaydi, balki hissiy qiymatga ega haqiqiy la’l sifatida idrok etiladi.

To’rtinchi baytda metafora yanada kengayadi. «Ko’hsor» va «nishoni la’l» bevosita la’l konlariga ishora qiladi. Oshiq chin la’lga, ya’ni ma’shuqaning labi yoki uning visoliga erishish uchun konchi singari o’z dil qonini sarflaydi. Shu tariqa kon qazish mehnati ishq yo’lidagi mashaqqatning ramziga aylanadi.

Beshinchi baytda «xoni la’l» dil qoniga to’la dasturxon timsolidir. Mumtoz adabiyot an’anasida bulbul gulning oshig’i bo’lib, uning nasibasi faqat kuyish va dil qonini ichishdir. Shu sababli «la’l» bu yerda javohir emas, balki dil qoni va ishq iztirobining metaforasidir.

Oltinchi baytda metafora o’zining eng yuqori cho’qqisiga yetadi. Bu yerda butun olam «jahoni la’l»ga aylanadi. Mazkur obraz faqat mayning qizil rangi emas, balki ma’shuqa husnining butun borliqni la’l rangiga bo’yovchi qudratini ifodalaydi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan bu hodisa kengaytirilgan metafora (extended metaphor)ning yorqin namunasi bo’lib, unda bitta leksema butun matnning obrazlar tizimini qamrab oladi.

Yettinchi baytda «la'l» ma'shuqaning labi ma'nosida qo'llangan. «Resmoni la'l» birikmasi lablarni qimmatbaho qizil ipga o'xshatadi. Mazkur metafora rang va shakl belgilarining uyg'unligi asosida yaratilgan.

Sakkizinchi baytda tosh va la'l qarama-qarshiligi chuqur ramziy mazmun kasb etadi. Ma'lumki, la'l oddiy tosh bag'rida shakllanadi. Shu bois shoir ishq iztirobini insonni oddiy toshdan bebaho la'lga aylantiradigan kuch sifatida talqin qiladi. Bu obraz tasavvufiy ma'no ham kasb etib, mashaqqat – ma'naviy kamolot vositasi degan g'oyani ifodalaydi.

G'azal maqta'sida «la'l» leksemasi yana ikki marta qo'llanadi. Birinchi holatda «la'li tu» ma'shuqaning labi va husnini bildirsa, ikkinchi holatda «gumoni la'l» ulug' orzu, yetishish mushkul bo'lgan ne'mat hamda ma'naviy boylik metaforasiga aylanadi. Shoir o'zini gado deb biladi, ammo qalbida la'lga yetishish umidini saqlab qoladi. Natijada «la'l» obrazi faqr, umid va mutlaq muhabbat tushunchalari bilan uzviy bog'lanadi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu g'azalda «la'l» oddiy lug'aviy birlik emas, balki matnning markaziy konsepti vazifasini bajaradi. Uning semantik maydoni javohir, ma'shuqa labi, may, dil qoni, yosh, ishq, boylik, go'zallik, muvaffaqiyat, iztirob va ruhiy kamolot kabi ko'plab ma'nolarni qamrab oladi. Ushbu ma'nolar yagona obrazlar tizimida birlashib, g'azalning mazmuniy va badiiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan aytganda, Navoiy «la'l» konseptini universal kognitiv model sifatida quradi. Mazkur modelda quyidagi konseptual tengliklar shakllanadi: lab = la'l; may = la'l; dil qoni = la'l; yosh = la'l; husn = la'l; qadriyat = la'l; visol = la'l.

Aynan mana shu konseptual tarmoq sababli bir leksemaning ko'p marotaba takrorlanishi mutlaqo bir xillik taassurotini uyg'otmaydi. Aksincha, har bir qo'llanish yangi semantik qirra, yangi uslubiy vazifa va yangi emotsional-ekspressiv ma'no hosil qiladi.

Mazkur g'azal Alisher Navoiy idiostilining eng yuksak namunalaridan biri bo'lib, shoir polisemiya, metafora, ramz, semantik mutanosiblik va badiiy takror imkoniyatlaridan mohirona foydalanib, bitta leksemani butun poetik tizimning markaziy o'qiga aylantirganini yaqqol namoyish etadi. Natijada «la'l» oddiy qimmatbaho tosh nomidan ko'p qatlamli lingvopoetik konsept darajasiga ko'tarilib, o'zida go'zallik, ishq, oshiq iztirobi, irfoniy kamolot va ma'naviy qadriyat kabi murakkab mazmunlarni mujassamlashtiradi.

Umumiy xulosa. O'tkazilgan qiyosiy lingvopoetik tahlil shuni ko'rsatadiki, «la'l» leksemasi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy she'riyatida oddiy qimmatbaho tosh nomini ifodalovchi leksik birlik emas, balki ko'p qatlamli lingvopoetik konsept sifatida namoyon bo'ladi. Uning semantik tuzilishida lug'aviy ma'no, metaforik ko'chishlar, tasavvufiy ramzlar, madaniy assotsiatsiyalar, konseptual metaforalar va individual uslubiy xususiyatlar o'zaro uyg'unlashib, yaxlit poetik tizimni vujudga keltiradi. Shu bois «la'l» har ikki shoirning badiiy tafakkurida husn, lab, so'z, tabassum, hayot, shifo, may, qon, yosh, olov, ishq va ma'naviy kamolot kabi konseptlarni o'zaro bog'lovchi markaziy semantik yadro vazifasini bajaradi.

Tahlil natijalari Jomiy va Navoiy Sharq mumtoz poetikasining mushtarak obrazlar tizimidan foydalangan bo'lsalar-da, uni o'zlarining individual idiostiliga mos ravishda yangicha talqin qilganliklarini yaqqol ko'rsatadi. Jomiy idiostilida «la'l» ko'proq jamol, tabassum, shirin kalom, Kavsar, Masih, ruhafzolik va ma'naviy uyg'unlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Uning poetik tizimida «la'l» estetik mutanosiblik, nafis musiqiylik, tasavvufiy ma'rifat va ilohiy go'zallikni ifodalovchi obraz darajasiga ko'tariladi.

Navoiy idiostilida esa «la'l» konsepti yanada murakkab va dinamik semantik tuzilishga ega bo'lib, olov, may, qon, dog', iztirob, faqr, visol va ishqning dramatik kechinmalari bilan uzviy bog'lanadi. Shoir an'anaviy metaforani paradoks, antiteza, kengaytirilgan metafora (extended metaphor) va polisemiya vositasida yangicha badiiy mazmun bilan boyitadi. Natijada jon baxsh etuvchi la'l jon oluvchi kuchga, o'tashin la'l oshiqni kulga aylantiruvchi ishq timsoliga, shoh tojidagi la'l esa ishq mayi va ma'naviy faqrlik qarshisida o'z qimmatini yo'qotuvchi moddiy boylik ramziga aylanadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, «la'l» konsepti har ikki shoir tafakkurida murakkab konseptual tarmoqni hosil qiladi. Ushbu tarmoq «lab = la'l», «may = la'l», «qon = la'l», «yosh = la'l», «husn = la'l», «so'z = gavhar», «ishq = mastlik» kabi konseptual metaforalarga asoslanadi. Mazkur konseptual modellar abstrakt ma'naviy tushunchalarni aniq moddiy obrazlar orqali idrok etish imkonini beradi hamda Sharq mumtoz poetik tafakkurining kognitiv asoslarini namoyon etadi.

Lingvopoetik jihatdan «la'l» konsepti har ikki adib idiositilining shakllanishida matn hosil qiluvchi (tekst hosil qiluvchi) markaziy birlik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Navoiy g'azallarida bitta leksema atrofida keng metaforik maydonning shakllanishi uning individual uslubining muhim belgisi bo'lib, polisemiya, metafora, ramz, talmeh va semantik parallelizmning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Jomiyda esa mazkur konsept poetik mutanosiblik, estetik mukammallik va tasavvufiy ruhning badiiy ifodasini ta'minlaydi.

Shunday qilib, «la'l» konsepti Jomiy va Navoiy she'riyatida nafaqat an'anaviy poetik obraz, balki Sharq mumtoz adabiyotining lingvomadaniy, kognitiv va estetik qadriyatlarini mujassamlashtirgan universal badiiy konsept sifatida namoyon bo'ladi. Uning qiyosiy tahlili har ikki shoir idiositilining umumiy va individual xususiyatlarini, metaforik tafakkur mexanizmlarini, konseptual poetika tamoyillarini hamda fors-tojik va turkiy-o'zbek adabiy an'alarining uzviy bog'liqligini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalari mumtoz adabiyot lingvopoetikasi, kognitiv poetika, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishlaridagi keyingi izlanishlar uchun muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurov A. Farhangi osori Jomiy. Ikki jildlik. I jild. A–O. 15 mingdan ortiq so'z va iboralar. / Muharrirlar: V. A. Kapranov, A. Afsahzod. – Dushanbe: Sarredaksiyai ilmiy Ensiklopediyai Tojik, 1983. – 536 b.
2. Abulxayr Manzar. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018. – 580 b.
3. Farhangi tafsiri zaboni tojikī. 2 jildlik. I jild. A–N. 80 mingdan ortiq so'z, ibora va birikmalar. / Mas'ul muharrirlar: Sayfiddin Nazarzoda, Ahmadjon Sanginov, Said Karimov, Mirzo Hasani Sulton. – Dushanbe: Pajuhishgohi zabon va adabiyoti Rudakiy, 2010. – 991 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. II jild. Ye–M. 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmasi. / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. – 672 b.
5. Abdurahmon Jomiy. Muhabbat maxzani. Tuzuvchi, mas'ul muharrir va ilmiy-tasavvufiy sharhlar muallifi Mirzo Kenjabek. – Toshkent: Tasvir, 2018. – 888 b.
6. Abdurahmon Jomiy. Muntaxabi g'azaliyot. Axtaroni adab (50 jildlik), 31-jild. – Dushanbe: Adib, 2016. – 480 b.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n sakkizinchi tom. Devoni Foni. – Toshkent: Fan, 2002. – 304 b.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'qqizinchi tom. Devoni Foni. – Toshkent: Fan, 2002. – 330 b.
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirmanchi tom. Devoni Foni. Qasidalar. Mufradot. Ilovalar. – Toshkent: Fan, 2003. – 454 b.
10. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 76 b.
11. Suvonova R. Metaforalar tasnifiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – 2010. – № 6. – B. 111–112.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING INDIVIDUAL JISMONIY YUKLAMALARINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH Mansurov Olimjon Odil o'g'li	4
CHUQURLASHTIRILGAN IXTISOSLIK BOSQICHIDA UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI Sirojev Shoxrux Fayzullo o'g'li	11
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI Bozorov Aziz Abloqulovich	16
DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'AT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI Bozorova Hamida Shukrilloevna	23
CHIZMACHILIK FANINI SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANIB O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Omonova Rayxon	26
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA REGBI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARNING HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI E.E. Jumayev	31
JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARIGA KURASH TEXNIK HARAKATLARINI O'RGATISHNING UYG'UNLASHTIRILGAN METODIK MODEL G'ulomov Nasillo Baxshullo o'g'li	34
BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI Mirzayev Toxirjon Turg'unovich	43
ISSIQ IQLIMDA MASHG'ULOT YUKLAMASINI RPE VA YURAK URISH CHASTOTASI YORDAMIDA BAHOLASH I.I. Saidov	55
IMOM ABU HOMID G'AZZOLIY QARASHLARI ASOSIDA FARZAND TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI TADQIQ ETISH Isoqova Gulnoz Ulug'bek qizi	61
RAQAMLI MONITORING VOSITALARI ORQALI YOSH KURASHCHILAR YUKLAMASINI OPTIMALLASHTIRISH Karim Mahramov	67

TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI Jumayeva Azizabonu Mo'min qizi	74
IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA DOIR TAJRIBALAR Kattaqulova Nozbibi Shokir qizi	82
MINIATYURA SAN'ATIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TASVIRIY VOSITALARNING UYG'UNLIGI Nozimova Muhabbat Akram qizi	85
DIGITAL TECHNOLOGY FOR L2 LISTENING DEVELOPMENT: CALL, MALL, CAPTIONS, VR, AND AI Juraboeva Nigina Olimjon kizi	95
ISSIQ IQLIM SHAROITIDA GIDRATATSIYA TARTIBINING YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING FUNKSIONAL HOLATI VA JISMONIY ISH QOBILIYATIGA TA'SIRI Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li	99
GANDBOLCHI TALABA QIZLARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA BOSQICHMA-BOSQICH YUKLAMA BERISH METODIKASI Dilnoza I. Yarasheva	105
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA BOSQON ULOQTIRISH TEXNIKASINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI Sarvinoz Iskandar qizi	111
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Saidova Mahbuba Ayubovna	118
BOSHLANG'ICH TAYYORLOV GURUHIDAGI SPORT GIMNASTIKACHILARDA MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich	127
THE APPLICATION OF THE PEDAGOGICAL CONCEPT OF JADID SCHOOLS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	134
MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Toshova To'ygul Amin qizi	141
INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI Urunova Dilafr'o'z Muzafarovna	145
МАКТАБ КЛАСТЕРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН, КОМПЕТЕНЦИАВИЙ ВА РЕСУРСЛАРГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВЛАР Максуда Умаровна Бадалова	153
ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ «КОММУНИКАТИВНАЯ	158

КОМПЕТЕНЦИЯ» В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ: ОТ ЯЗЫКОВОГО ЗНАНИЯ К ИНТЕГРАТИВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ Нуруллаева Гузал Анваровна	
FILOLOGIYA FANLARI	
ОТ ПЕРЕЖИВАНИЯ К СМЫСЛУ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА ИНТЕРПРЕТАЦИОННОГО ОСВОЕНИЯ ПОЭЗИИ А. АХМАТОВОЙ В ПРОЦЕССЕ ЯЗЫКОВОГО И ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	168
NUTQIY AKTNI TADQIQ ETISHNING LINGVOPRAGMATIK VA ANTROPOSENTRIK MEZONLARI Akramova Surayo Renatovna	174
TILNI O'RGANISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING KALIT JIHATLARI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI: RAQAMLI DAVR TILSHUNOSLIGINING YANGI UFQLARI Boymurodova Nishona Yunus qizi	178
IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA "ILM" KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV TALQINI Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna	184
ПУТЬ К СМЫСЛУ ЧЕРЕЗ СИМВОЛ: АВТОРСКАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА А. БЛОКА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	189
INGLIZ XALQ ERTAKLARI LINGVOMADANIY-DIDAKTIK MIKROKORPUSINI SHAKLLANTIRISH: TANLASH MEZONLARI VA ANNOTATSIYA MODELI Djabbarova Feruza Azamovna	194
JOMIY VA NAVOIY IDIOSTILIDA "LA'L" KONSEPTI VA UNING METAFORIK XUSUSIYATLARI Tavakkal Choriyev	200
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV TOPSHIRIQLARNING TALABALAR KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna	213
ANIQ VA TABIIY FANLAR	
BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR Hamdamova Nozima Mukimovna	218
GRAFIK SAVODXONLIKNI BAHOLASHDA ANIMATSION DIAGNOSTIKA VOSITALAR Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	225